



UDK: 304:316.422.42:316.653(575.1)

Elyor ZAITOV,
PhD, dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: e.zaitov@nuu.uz, ORCID: 0009-0006-7241-8299

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, sots.f.d. Sh.Sodiqova taqrizi asosida

INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF SELF-GOVERNANCE UNDER CONDITIONS OF INSTITUTIONAL TRANSFORMATION

Annotation

This article analyzes the development of self-governance institutions under conditions of institutional transformation from a sociological perspective. It examines the impact of globalization processes and transformations in the social structure on these institutions. Self-governance institutions are considered as an important element of the social system. Their role in regulating social relations, forming social capital, and ensuring civic participation is substantiated. The interrelation between these institutions, legitimacy, social trust, and social cooperation is analyzed. The influence of the level of social activity and public participation on the effectiveness of these institutions is highlighted. The main sociological trends of development under conditions of institutional change are identified.

Key words: self-government, mahalla, management, state, population, community, personality, municipality, need, model, government, utilities, integration, form, attitude.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ САМОУПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация

В данной статье развитие институтов самоуправления в условиях институциональной трансформации анализируется с социологической точки зрения. Рассматривается влияние процессов глобализации и трансформации социальной структуры на данные институты. Институты самоуправления интерпретируются как важный элемент социальной системы. Обосновывается их роль в регулировании социальных отношений, формировании социального капитала и обеспечении гражданского участия. Анализируется взаимосвязь институтов с легитимностью, социальным доверием и социальным взаимодействием. Освещается влияние уровня социальной активности и участия населения на эффективность данных институтов. Выявляются основные социологические тенденции развития в условиях институциональных изменений.

Ключевые слова: самоуправление, махалла, управление, государство, население, сообщество, личность, муниципалитет, потребность, модель, власть, коммунальные услуги, интеграция, форма, отношение.

INSTITUTIONAL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI RIVOJI

Аннотация

Ushbu maqolada institutsional transformatsiya sharoitida o'zini o'zi boshqarish institutlarining rivoji sotsiologik yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda globallashuv va ijtimoiy tuzilma transformatsiyasining ushbu institutlarga ko'rsatayotgan ta'siri ochib beriladi. O'zini o'zi boshqarish institutlari ijtimoiy tizimning muhim elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Ularning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, ijtimoiy kapitalni shakllantirish va fuqarolik ishtirokini ta'minlashdagi o'rni asoslanadi. Maqolada institutlarning legitimligi, ijtimoiy ishonch va ijtimoiy hamkorlik bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, aholining ijtimoiy faolligi va ishtiroki darajasining ushbu institutlar samaradorligiga ta'siri yoritiladi. Institutsional o'zgarishlar jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy sotsiologik tendensiyalar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi boshqarish, mahalla, boshqaruv, davlat, aholi, jamoa, shaxs, munitsipalitet, ehtiyoj, model, hokimiyat, kommunal xizmat, integratsiya, shakl, munosabat.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonlari va jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar boshqaruv tizimlariga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Ayniqsa, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, ijtimoiy institutlarning o'zaro aloqadorligi va aholining ijtimoiy faolligi ortib borayotgan bir sharoitda o'zini o'zi boshqarish institutlari muhim sotsiologik hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sotsiologik nuqtai nazardan, o'zini o'zi boshqarish institutlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi hamda fuqarolarning o'z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Shu bois, institutsional transformatsiya jarayonlari ushbu institutlarning nafaqat tashkiliy-huquqiy jihatlarini, balki ularning ijtimoiy funksiyalari, legitimligi va jamiyatdagi o'rnini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Bugungi kunda o'zini o'zi boshqarish institutlarining rivoji ijtimoiy hamkorlik, ishonch, ijtimoiy birdamlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning samaradorligi bevosita jamiyat a'zolarining faollik darajasi va ijtimoiy ishtirokiga

bog'liqdir. Shu jihatdan, mazkur institutlarning institutsional transformatsiya sharoitida rivojlanish tendensiyalarini sotsiologik tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolada o'zini o'zi boshqarish institutlarining sotsiologik mohiyati, ularning institutsional o'zgarishlar sharoitidagi rivojlanish xususiyatlari hamda jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga ta'siri tahlil etiladi. Ushbu masalalarni chuqurroq anglashda G'arb sotsiologlari tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, ularning ijtimoiy institutlar, ijtimoiy kapital va fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlari mazkur tadqiqotning nazariy doirasini kengaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shuningdek, G'arb sotsiologlaridan Maks Veberning ratsional byurokratiya, ijtimoiy harakatlar va rollar haqidagi nazariy qarashlari mahalla institutidagi boshqaruv jarayonlari va uning davlat-jamoatchilik munosabatlaridagi o'rnini chuqurroq tushunishga asos yaratadi [1]. M.Veberga ko'ra, byurokratiya boshqaruvning ratsional shakli sifatida faoliyatning tizimlilikini, qonunchilikka asoslanganlikni va

tartibli boshqaruvni ta'minlaydi. Bu konsepsiya mahalla institutining faoliyatida qonunchilik va ijro mexanizmlarini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi. M.Veberning hokimiyat shakllari nazariyasi (xarizmatik, an'anaviy va legal-ratsional hokimiyat) mahalla institutlaridagi hokimiyat munosabatlarini tahlil qilishda biz uchun foydali bo'ldi. Masalan, an'anaviy hokimiyat mahalladagi urf-odatlar, an'analar, turmush tarzi va qadriyatlar asosida shakllanadi, ammo transformatsiya jarayonida legal-ratsional hokimiyatning ta'siri ortib, qonunchilik mexanizmlari kuchayib boradi. Bundan tashqari, uning ijtimoiy harakatlar nazariyasi mahalla institutining davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi vositachi sifatidagi rolini tushunishga yordam beradi [2]. Uning ta'limotiga ko'ra, mahalla instituti fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojlarini davlatga yetkazishda va davlat siyosatlarini jamiyatga tatbiq etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Talkott Parsonning funksionalizm nazariyasi har bir ijtimoiy institutning o'zaro bog'liqligi va jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Uning ta'limotiga ko'ra, ijtimoiy tizim o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun turli institutlar bir-biri bilan uyg'unlikda ishlashga majbur. Bu konsepsiya mahalla institutining ijtimoiy tizimdagi o'rni va uning jamiyat barqarorligidagi ahamiyatini tushunishga zamin yaratadi. Parsonning "adaptatsiya", "maqsadga erishish", "integratsiya" va "qonuniylashtirish" kabi asosiy paradigmalari mahalla institutining transformatsiya jarayonidagi vazifalarini tushunish uchun zarurdir. Uning funksionalizm nazariyasi mahalla institutining ijtimoiy tizimdagi roli va uning vazifalarini tahlil qilish uchun nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

T.Parsonning adaptatsiya paradigmasida mahalla instituti ijtimoiy normalarni saqlash orqali yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashadi.

Maqsadga erishish paradigmasi mahallaning turli faoliyat yo'nalishlari orqali aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Integratsiya paradigmasida mahallani davlat jamoatchilik o'rtasidagi o'ziga xos ko'priq sifatidagi rolini namoyon etib, hamjihatlikni ta'minlaydi.

Qonuniylashtirish negizida esa mahallaning huquqiy va madaniy asoslari saqlanadi.

Shu tariqa turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida pozitiv munosabatlarni muvofiqlashtirish va jamoaviy manfaatlarni qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy tizimning barqarorligi ta'minlanadi. Uning "ijtimoiy barqarorlik" tushunchasi mahalla institutini kafolatli xavfsizlik hududiga transformatsiyalashuvi

hamda uning jamoatchilik hayotidagi integratsiya roliga hamohangdir [3].

Shu o'rinda, yana bir mumtoz sotsiolog Per Burdening ijtimoiy maydon, kapital turlari va habitus nazariyalari mahalla institutini chuqurroq tushunish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi. Uning ta'limotiga ko'ra, har bir ijtimoiy institut muayyan ijtimoiy maydonda faoliyat yuritadi, bu maydon esa iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy kapitalga asoslangan holda shakllanadi [4]. Ijtimoiy maydon tushunchasi mahalla institutining jamiyatdagi umumiy pozitsiyasini aniqlashga yordam beradi. Mahalla instituti, bir tomondan, madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy me'yorlarni saqlovchi subyekt sifatida faoliyat ko'rsatsa, ikkinchidan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ijtimoiy boshqaruv tizimining bir qismi sifatida xizmat qiladi. Bu holat uning ijtimoiy maydondagi o'rni va funksiyalarini chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Kapital turlari tushunchasi esa mahallaning ijtimoiy institut sifatidagi resurslarini aniqlashda ahamiyatlidir:

madaniy kapital: mahalla o'z faoliyati orqali jamiyatning an'anaviy qadriyatlari va madaniyatini saqlaydi va tarqatadi. Masalan, mahallada o'tkaziladigan an'anaviy bayramlar va marosimlar madaniy kapitalning ifodasi hisoblanadi.

Ijtimoiy kapital: mahalla aholisining o'zaro aloqalari va hamjihatligi. Mahalla fuqarolarini birlashtiruvchi tarmoqlar va aloqalar ijtimoiy kapitalning asosiy qismidir.


Iqtisodiy kapital: mahalladagi resurslar va iqtisodiy faoliyat, jumladan, aholining mehnatga jalb qilinishi, kichik tadbirkorlik va homiylik faoliyatlari.

Habitus tushunchasi mahalla institutining madaniy ta'sirini tushunishda muhimdir.

Habitus tushunchasi P.Burdega ko'ra, ijtimoiy holatlardan kelib chiqqan holda insonlar hayotidagi dunyoqarash va xulq-atvor qoidalarini shakllantiradi. Mahalla o'zining tarbiyaviy faoliyati orqali habitusni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy maydonlardan biri bo'lib xizmat qiladi [5].

Burdening bu nazariyalari mahalla institutining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy kapital resurslari bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilish va uning transformatsiya jarayonidagi o'rni aniqlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mahalla institutini tadqiq qilishda turli nazariy yondashuvlar qo'llaniladi. Ular mahallaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Asosiy yondashuvlar quyida keltirilgan (2-rasm):



2-rasm. Mahalla institutini o'rganishdagi nazariy yondashuvlar

ADABIYOTLAR

1. Вебер М. Политика как призвание и профессия. – Москва: РИПОЛ Классик, 1999. – С. 9.
2. Вебер М. Избранное. – Москва: РОССПЭН, 2006. – С. 3.
3. Парсонс Т. Система современных обществ. – Москва: Аспект-Пресс, 1997. – С. 270.
4. Bourdieu, Pierre. "Les rites d'institution". Actes de la recherche en sciences sociales 43 (1982): – P. 58-63.
5. Bourdieu P. Forms of Capital // John G. Richardson (ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – NY.: Greenwood Press, 1986. – P. 48-73.
6. Н.М. Эгамбердиева ва бошқалар. Ўзбекистон маҳаллалари: кеча ва бугун. Тошкент, 2022. – Б. – 400 б.